

## O'ZBEKISTONDA AGROTURIZM ISTIQBOLLARI VA UNI RIVOJLANTIRISH IMKONIYATLARI

**Umirov Jasurbek Temirquliyevich**

*BuxDU, Turizm va mehmonxona xo'jaligi kafedrası o'qituvchisi*

j.t.umirov@buxdu.uz

**Annotatsiya:** Dunyoning turli mamlakatlarida qishloq xo'jaligining iqtisodiy ahamiyati pasayganligi sababli ko'plab mamlakatlarda qishloq xo'jaligi turizmi rivojlangan. Rivojlangan mamlakatlarda aholining qishloqlardan shaharga tomon oqimi turli mamlakatlar hukumatlarini qishloqlarning yashash va ishlash uchun jozibadorligini oshirish va aholoni qishloqlarga jalp qilish yo'llari haqida o'ylashga majbur qildi. Agroturizm qishloq aholi punktlari nufuzini oshirishning samarali usullaridan biriga aylandi.

**Kalit so'zlar:** *agroturizm, bo'sh vaqt, samaradorlik, sayohat, diniy turizm, ekoturizm, diversifikatsiya, sayohat.*

## ПЕРСПЕКТИВЫ АГРОТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ И ВОЗМОЖНОСТИ ЕГО РАЗВИТИЯ

**Умиров Жасурбек Темиркулиевич**

*Бухарский государственный университет, кафедра туризма и гостиничного  
дела*

j.t.umirov@buxdu.uz

**Аннотация:** В связи со снижением экономической значимости сельского хозяйства в различных странах мира во многих странах получил развитие аграрный туризм. Переток населения из сельской местности в города в развитых странах заставил правительства разных стран задуматься о способах повышения привлекательности сельской местности как мест для жизни и работы, а также привлечения людей в сельскую местность. Агротуризм стал одним из эффективных способов повышения престижа сельских поселений.

**Ключевые слова:** *агротуризм, досуг, производительность, путешествия, религиозный туризм, экотуризм, диверсификация, путешествия.*

## PROSPECTS OF AGRITOURISM IN UZBEKISTAN AND ITS DEVELOPMENT OPPORTUNITIES

## Umirov Jasurbek Temirquliyevich

*Bukhara State University, Department of Tourism and Hospitality*

*j.t.umirov@buxdu.uz*

**Abstract:** Due to the decline in the economic importance of agriculture in various countries of the world, agricultural tourism has developed in many countries. In developed countries, the flow of population from rural areas to cities has forced governments of various countries to think about ways to increase the attractiveness of villages for living and working and attract people to villages. Agrotourism has become one of the effective ways to increase the prestige of rural settlements.

**Keywords:** *agrotourism, leisure, productivity, travel, religious tourism, ecotourism, diversification, travel.*

### KIRISH

Dunyoda ikkinchi jahon urushidan keyin ko‘plab sohalar ilg‘orlik bilan rivojlana boshladi, xususan iqtisodiyot, sanoat-ishlab chiqarish, qishloq xo‘jaligi, mashinasozlik, metallurgiya va xizmat ko‘rsatish bilan bir qatorda turizm sohasi ham keng rivojlana boshladi. So‘nggi yillarda xalqaro turistlar oqimi yiliga o‘rtacha 7-10 foizga o‘sayotganligi kuzatilmoqda, bu esa turizm sanoatini jahon yalpi ichki mahsulotining qariyb 10 foizdan ortiqrog‘ini tashkil etmoqda. Aslida turizmning rivojlanishida bo‘sh vaqt asosiy o‘rin tutadi. Insonda bo‘sh vatning paydo bo‘lishi uchun 19-asrga kelibgina imkoniyatlar yaratildi. Shotlandiyaning Nyu-Lanark shahridagi tegirmon egasi Robert Ouen 10 soatlik ish kunini ilk bor taklif qilganida ishchilar buni ta‘tildek qabul qilishgan.

Kommunistik mafkura asoschisi Karl Marks ham qisqa ish kunini taklif qilgan. Uning fikricha, ishchini ortiqcha ishlatish uning ma‘naviy va jismoniy haqqini o‘g‘irlash bilan birga xodimning ish samaradorligi tushishiga va hatto o‘limiga ham sabab bo‘lishi mumkin. Shuning uchun u ortiqcha ish vaqti ham xodim uchun, ham ish beruvchi uchun zararli deb hisoblagan<sup>1</sup>.

Dunyo bo‘yicha ilk marta haftasiga 40 soatlik ishlash samaradolikning pasayishiga olib keladi deb hisoblab, 9 soatlik ish kunini 8 soatga tushurgan va kunlik maoshni 5 dollarga ko‘targan ilk ish beruvchi Amerikalik tadbirkor va innovator Genrix Ford bo‘lib hisolanadi. U o‘zi tashkil qilgan Ford Motors zavodida ishchilarni rag‘batlantirish va mehnat unumdorligini oshirish uchun 8 soatlik ish kunini joriy qilgan, tabiiyki bunday o‘zgarishlardan keyin insonlarda bo‘sh vaqt paydobo‘lib, ushbu vaqtda dam olishga ehtiyoj shakllangan. Faqatgina 1950-yilga kelibgina Amerikada 8 soatlik ish kuni standart sifatida qabul qilinadi va AQSH qonunlarida

<sup>1</sup> <https://kun.uz/news/2020/07/15/8-soatlik-ish-8-soatlik-uyqu-va-8-soatlik-erkinlik-dunyo-ishchilari-erishgan-galaba>

belgilab qo'yiladi. Bunday reformalardan so'ng dunyoning ko'plab davlatlari Amerika standartlariga o'xshab kuniga 8 soatlik, haftasiga 40 soatlik ish vaqtini o'zlashtirib olishadi. Buning natijasida Amerikadagi ko'plab fabrikalarda mehnat unumdorligi oshib, ishlab chiqarish hajmi ko'pyadi, insonlarning bo'sh vaqti ko'payganligi tufayli ularda sayohatga bo'lgan ehtiyoj paydo bo'ladi.

### ADABIYOTLAR TAHLILI

Agroturizmning ulushi yildan-yilga turizm sohasida o'sib bormoqda. Agroturizm tushunchasiga ta'rif berishda ko'pgina Xalqaro tashkilotlar, xorijiy olimlar, yurtimiz olimlari o'zlarining yondashuvlarini taklif etganlar. Agroturizmning turizm sohasidagi o'rni va ahamiyatini ilmiy-nazariy jihatdan o'rganish turli olimlar tomonidan keng tahlil etilgan.

Agroturizm dunyoning rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarida "agroturizm", "agriturizm", "farm turizmi", "qishloq xo'jaligi turizmi" yoki "qishloq xo'jaligidagi ko'ngilochar" kabi turli xildagi nomlar va tushunchalar bilan tanilgan. Turizm bu turi, insonlarning bo'sh vaqtlarini ochiq va toza tabiat sharoitida madaniy dam olishlari, yangi bilimlarni, ta'lim olishni va fermer xo'jaliklariga qo'shimcha daromad olish uchun qishloq xo'jaligi tomonidan olib boriladigan har qanday agrobiznes faoliyatlar sifatida belgilanadi<sup>2</sup>. Agroturizmning rivojlanishi Italiyada boshlangan bo'lib, boy shahar aholisi tinchroq muhit izlab Italiyaning janubidagi so'lim qishloqlarga dam olishga kelishidan boshlangan. Quyida keltirilgan olimlarning ilmiy izlanishlari agroturizm strategiyalarini turizmni rivojlantirish hamda mintaqalar turizm salohiyatini jahon miqyosida tanitishdagi dolzarb masalalarni yoritadi.

Turizm bo'yicha ko'plab ilmiy ishlar muallifi J.W.Kloeze qishloq turizmi ta'rifiga hududiy jihatdan yondashib, quyidagicha ta'rifni keltirgan. Uning fikricha "qishloq turizmi qishloq sharoitida rivojlanayotgan barcha turistik faoliyatlarni o'z ichiga oladi"<sup>3</sup>. Qishloq joylarida tashkil etilayotgan barcha turizm turlarini qishloq turizmi bilan bog'lash to'g'ri emas, chunki qishloq joylarida madaniy turizm obyektlari, diniy-ziyorat turizm obyektlari ham juda ko'plab tarqalgan, ularga borigan turistlar qishloq turizmi ishtirokchisi sifatida qabul qilinmaydi.

M. Kaluina ilmiy ishlarida qishloq turizmini dehqonchilik bilan bog'lab, "qishloq joylaridagi turizm deganda dehqonlarning o'z xo'jaliklarida sayyohlarga xizmat ko'rsatishi tushuniladi"<sup>4</sup> degan ta'rifni bergan. Ushbu olimning fikriga aniqroq to'xtaladigan bo'lsak, qishloq turizmi sayyohlarga oziq-ovqat va turar joy kabi xizmatlarni ko'rsatishni o'z ichiga oladi. Ushbu ta'rifda agroturizm bilan qishloq turizmining bir xil ma'noga ega ekanligi isbotlashga harakat qilingan, ammo

<sup>2</sup> E. B. Tog'aymurodov Agroturizm: Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish muqobil mexanizmi Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali, xalqaro ilmiy anjuaman to'plami, Toshkent -2024,145-bet.

<sup>3</sup><https://cyberleninka.ru/article/n/sistemnyy-sintez-kategorii-agroturizma.pdf>

<sup>4</sup> Kaluina M. Travel and Tourism in Eastern Europe // Euromonitor International, 2013. — 24 p.;

Agroturizm qishloq hududlarida tashkil qilinadigan va yer, dehqonchilik bilan bog‘liq bo‘lgan turizm turi ekanligi ajratib o‘tilmagan.

Agroturizm bo‘yicha mashhur Rossiyalik tadqiqotchi A.B.Zdorov “qishloq turizmi va agroturizm” tushunchalarini o‘zaro tenglashtirib, bir xil ma’no kasb etadi degan. Ushbu olimning fikricha “agroturizm shaxsiy uy xo‘jaliklari, fermer xo‘jaliklari, shuningdek qishloq xo‘jaligi sohasida ishlab chiqarish faoliyati bilan shug‘ullanuvchilar tomonidan amalga oshirilishi mumkin bo‘lgan tadbirkorlikning bir shakli hisoblanadi”<sup>5</sup>.

## METODOLOGIYA

Ushbu tadqiqotda agroturizmni rivojlantirishning ilmiy asoslarini o‘rganish va uni amaliyotga tatbiq etish bo‘yicha metodologik yondashuvlar keng qo‘llanilgan. Tadqiqot davomida nazariy tahlil usuli orqali agroturizmning iqtisodiyotga, qishloq hududlarini rivojlantirishga va ekologik barqarorlikka ta’siri o‘rganilgan. Taqdim etilgan adabiyotlar sharhi orqali xalqaro tajribalar va mintaqaviy rivojlanish modellarini o‘rganilgan holda, SWOT tahlil yordamida O‘zbekistonda agroturizm rivojlanishining kuchli va zaif tomonlari, imkoniyatlar hamda xavf-xatarlar baholangan. Shuningdek, ekspert baholash usuli orqali turizm sohasi bo‘yicha mutaxassislar va qishloq xo‘jaligi sektorining yetakchilari bilan suhbatlar o‘tkazilib, agroturizmning joriy rivojlanish holati va istiqbollarga doir ma’lumotlar olingan.

Empirik tadqiqot doirasida agroturizm obyektlarining mavjud holati va turistlar uchun yaratilgan infratuzilma o‘rganildi, sayyohlarning qiziqishlari va talab-ehtiyojlari bo‘yicha so‘rovnomalar o‘tkazilgan. Statistik tahlil orqali esa agroturizmning iqtisodiy samaradorligini baholash uchun qishloq xo‘jaligi va turizm sohasidagi statistik ma’lumotlar tahlil qilingan.

## MUHOKAMA VA NATIJALAR

Insonlarda sayohatga chiqishga undovchi uchta motiv mavjud. Bular: Pul, bo‘sh vaqt va xohish. Xohish har doim ham har bir insonda bo‘ladi, aynan turizmning global miqyosda rivojlanishiga va insonlarning ommaviy ravishda sayohatlarga chiqishida qolgan ikki motiv asosiy o‘rinni egallaydi, ya’ni pul va bo‘sh vaqt bu insonni dam olishga, boshqa davlatlar va manzillarga sayohatga chiqishga undovchi asosiy motivlardir. Tajribadan ma’lumki, bozor iqtisodiyoti sharoitida talab va taklif qonuni doim ishlab kelgan, talab bor joyda unga yarasha taklif ham bo‘ladi. Sayohat qiluvchi insonlarning bir necha barobar ko‘payishi, shunga mos ravishda bunday sayohatchilarga turistik xizmat ko‘rsatuvchi korxonalarning ko‘payishiga va turli xil turizm turlarining shakllanishiga va rivojlanishiga olib keldi.

<sup>5</sup> А.Б.Здорова. Агротуризм: перспективи розвитку в Україні // Міжнар. наук. -практ. конф. “Наука, інновації та розвиток регіонів”

Hozirgi kunda dunyo bo'yicha turizmning yuzlab turlari mavjud bo'lib, shulardan eng ko'p turistlar tashrif buyuradigan turizm turlari bu madaniy turizm, diniy-ziyosat turizmi, agroturizm va ekoturizm bo'lib hisoblanadi. Chunki so'ngi yillarda sayyohlarni eng qiziqtirib kelayotgan va jalp qilayotgan yo'nalishlar tabiat bilan hamnafas bo'lish, bo'sh vaqtini tabiat qo'ynida o'tkazish bo'lib hisoblanadi. Agroturizm ham ushbu turizm turlari qatorida keying yillarda rivojlanib, turistlarning eng qiziqarli yo'nalishlaridan biriga aylanib bormoqda. Bunga sabab esa ekologik toza qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlarining kamayayotganligi, vitaminlarga boy sabzavot va poliz ekinlarining inson salomatligiga foydasi va bunday mahsulotlarga bo'lgan talabning oshishi, toza havo va tinch muhit, mineral manbaalarning qishloq joylarida ko'pligi, shaharlar aholisining ko'payishi, insonlar hayotiga turli texnologiyalar va avtomobillarning keng kirib borishi (buning natijasida insonlarda kuchli charchoq va stressing ko'payishiga olib kelmoqda), katta shaharlardagi shovqin-suronlarning ko'payishi, o'zaro insonlar o'rtasidagi muloqotning kamayishi kabi faktorlar agroturizmning rivojlanishiga, ya'ni insonlarning tinch, sog'lik uchun havosi toza hududlarga sayohat qilishiga olib kelmoqda.

O'zbekiston tabiati agroturizmni rivojlantirish uchun yetarlicha imkoniyat va salohiyatga ega. Yurtimiz aholisi azal-azaldan dehqonchilik hadisini olib, qishloq xo'jaligida yuksak tajribani egallab kelishgan. Ming yillar davomida to'plangan dehqonchilik tajribalarimiz asosida agroturizmni rivojlantirish mumkin. Bundan tashqari turli xil meva va sabzavotlarga boy mahsulotlarni yetishtirish uchun quyosh nuri va daryo suvlari serob hisoblanadi. Bir so'z bilan aytganda qishloq xo'jaligida qo'shimcha daromad manbaalarini ko'paytirish uchun agroturizmni tashkil qilishga biosotsial potensial yetarli darajada tabiatimizda mavjud (1-jadvalda keltirilgan).

### 1-jadval

#### O'zbekistonda agroturizm sohasining SWOT tahlili<sup>6</sup>

| Kuchli tomonlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      | Kuchsiz (zaif) tomonlari                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                      |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| <p>O'zbekiston qishloq hududlarining yuqori turistik salohiyatga egaligi;</p> <p>Agroturizm imkoniyatlari uchun tabiiy va iqlimiy sharoitlarning mosligi;</p> <p>Davlat tomonidan turizm sohasiga strategik sektor sifatida e'tibor qaratilishi;</p> <p>Hududiy diversifikatsiya imkoniyatlarining mavjudligi;</p> <p>Agroturizm xizmatlarini yil davomida ko'rsatish imkoniyati;</p> | <p>Agroturizmga oid qonuniy asoslarning yetarlicha ishlab chiqilmaganligi;</p> <p>Infratuzilmaning rivojlanmaganligi (yo'llar, transport, mehmonxonalar va turistik xizmatlar yetishmovchiligi);</p> <p>Agroturizm bo'yicha xizmat ko'rsatish standartlarining yo'qligi;</p> <p>Fermer xo'jaliklari va qishloq aholisining agroturizm sohasidagi bilim va tajribalarining cheklanganligi;</p> |

<sup>6</sup> Tadqiqot natijasida muallif ishlanmasi

|                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                             |
|---------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|-----------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------------|
| Ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan talabning ortib borishi;<br>Aholi bandligini oshirish va iqtisodiy diversifikatsiyani rag'batlantirish imkoniyatlari.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                       | Investitsiyalarni jalb qilish bo'yicha mexanizmlarning yetarlicha samarali emasligi;<br>Tashqi bozorlar bilan aloqalarning sustligi va xalqaro turistik platformalarda marketing strategiyasining yo'qligi.                                                                                                                                                                                                                                                                                                                 |
| <b>Imkoniyatlar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                         | <b>Xavf-xatarlar</b>                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                                        |
| Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash bilan bog'liq agroturizm xizmatlarini taklif etish;<br>Qishloqlarning madaniy, tarixiy va an'anaviy merosini saqlab qolish va rivojlantirish;<br>Shahar va qishloq aholisi o'rtasidagi iqtisodiy farqni qisqartirish va qishloq hududlarida bandlikni oshirish;<br>Agroturizm obyektlarini xalqaro grant va investitsiyalar yordamida rivojlantirish;<br>O'zbekistonning tabiiy va ekologik muhitidan foydalanib, xalqaro ekoturizm bozorida raqobatbardosh mahsulot yaratish;<br>Mahalliy va xorijiy turistlar uchun maxsus agroturistik yo'nalishlarni ishlab chiqish. | Ekologik va tabiiy ofatlar, texnogen xavflarning mavjudligi;<br>Agroturizm xizmatlariga xalqaro bozorda raqobatning kuchayishi;<br>Iqlim o'zgarishlari va tabiiy resurslardan noto'g'ri foydalanish oqibatida tuproq degradatsiyasi;<br>Qishloq joylarida turizm xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha raqobatbardosh infratuzilmaning yetishmovchiligi;<br>Sayyohlarning yangi turizm turlarini qabul qilishga tayyor emasligi va ma'lumot yetishmovchiligi;<br>Ijtimoiy-iqtisodiy beqarorlik va global iqtisodiy o'zgarishlar. |

O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611-son "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoniga muvofiq, qishloq joylarda agroturizmni jadal rivojlantirish, turizm aylanmasiga fermer va dehqon xo'jaliklarini, qishloq joylardagi mahalliy aholini keng jalp qilish, hududlarning turistik salohiyatidan samarali foydalanish maqsadida Vazirlar mahkamasi qarori<sup>7</sup> chiqqan bo'lib, ushbu qarorda yurtimizda agroturizmni rivojlantirish yuzasidan bir qator vazifalar belgilab berilgan. Xususan: Agroturizmni tashkil qilish imkoniyatiga ega bo'lgan fermer va dehqon xo'jaliklari, tomorqa yer egalari agroturizmni tashkil qilish uchun bir qator yengilliklar berish, ularga agroturizmni tashkil qilish bo'yicha amaliy yordam berish, hududning geografik, ekologik salohiyatidan kelib chiqib, agroturizm yo'nalishini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlarning tajribasini chuqur o'rganish va uni amalda joriy etish. Agroturizm obyektlarining to'liq geografik joylashuvi to'g'risidagi batafsil ma'lumotlarni elektron xaritalarga (google maps va boshqalar) joylashtirish, qishloq hududlarida agroturizm klasterlarini joriy qilish va bu orqali agroturistik mahsulotlarni

<sup>7</sup> <https://lex.uz/docs/-4143188>

yetishtirishdan boshlab, toki uni tayyor mahsulotga aylantirish va uni tatib ko'rishgacha bo'lgan jarayonni o'z ichiga oladigan jarayonni tashkil qilish. Sayyohlarni qabul qilish istagida bo'lgan dehqon va fermerlar tomonidan "Turistik mahalla" tipidagi uy joylar komplekslari qurish kabi bir qator vazifalar belgilab berilgan. Ushbu vazifalarni tizimli ravishda amalga oshirish yurtimizda agroturizmni rivojlantirish, xalqaro va mahalliy turistlarni agroturizmga jalp qilishga katta hissa qo'shadi. Buning natijasida qishloq hududlarida yashovchi insonlarning daromadi oshib, ishsiz insonlarning ish bilan bandligi ta'minlanadi. Qishloq joylarida infratuzilma rivojlanadi, shahar va qishloqlar o'tasidagi disbalans yo'qoladi. Bundan tashqari qishloqlardan shaharga bo'lgan migratsiya kamayadi. Qisqa qilib aytganda qishloq hududlarida rivojlanish tezlashadi.

Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilishda agroturizm loyihasi rivojlanayotgan mamlakatlarda, jumladan, O'zbekistonda ham ma'lum bo'lgan ba'zi muammolarni bartaraf etish imkoniyatiga ega. Rivojlanayotgan mamlakatlarning aksariyati yirik qishloq xo'jaligi sektoriga bog'langan. Bunday hududlardagi aholining katta qismi qishloq xo'jaligiga qaram bo'lgan shahardan tashqari joylarda yashaydi. Bunday joylarda insonlar qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularni saqlash va realizatsiya qilish kabi faoliyatlar bilan mashg'ul bo'lishadi. Agroturizmning shartli jihatlari quyidagilardan iborat: Ekologik jihatdan toza tabiiy mahsulotlar, yakka tartibdagi va ixtisoslashtirilgan turar joy binolarining mavjudligi, bunday joylar qishloq joylarida, fermer xonadonida, kichik shaharlarda sanoat va ko'p qavatli binolardan ancha olisda joylashgan bo'lishi (kamida 35-40 km uzoqlikda), dehqonchilik bog'dorchilik bilan bog'liq biron faoliyatning mavjud bo'lishi va unda turistlarning ishtirok etishlari uchun minimal darajada sharoitlar yaratilgan bo'lishi lozim.

Hududlarda agroturizmni rivojlantirish bir qancha muammolarni hal qiladi, bular quyidagilar:

- Ishsizlikni oldini oladi, mavsumiy ish o'rinlarining ko'payishiga zamin yaratadi;
- Shaharlardan qishloqlarga bo'lgan oqimni ko'payishi tufayli qishloq aholisini ko'plab sohalarda qayta taqsimlaydi;
- Agroturistik komplekslarning ko'payishiga zamin yaratadi;
- Ekologiyani yaxshilaydi va insonlarning atrof muhitga bo'lgan ijobiy his-tuyg'ularini oshiradi;
- Iqtisodiyotning rivojlanishi ijobiy ta'sir o'tkazadi, YaIMda qishloq xo'jaligining ulushi oshadi;
- Shahar va qishloq aholisi orasidagi munosabatlarni mustahkamlaydi va ijobiy his-tuyg'ularni yuksaltiradi;

- Yosh avlodda tabiatga, undagi jonivorlarga bo'lgan mehribonchilikning paydo bo'lishiga olib keladi;

- Agroturizm sohasiga investorlarni jalp qilib, investitsiyalarning ko'payishga olib keladi.

O'zbekiston tabiati dunyoning boshqa mintaqalarida takrorlanmas va betakror flora va faunaga, hamda iqlim xususiyatlariga ega hisoblanadi. Mamlakatimizda turizmning mavsumiyligi degan tushuncha yo'q, yurtimizda har bir sayyoh yilning istalgan vaqtida zavq-shavq oladigan, o'yin-kulgi topa oladigan tabiatning betakror manzaralariyu, agroturizm mahsulotlarini uchratish mumkin. Agroturizm taklifining asosi qishloq joylarida shinam, kamtarona bezatilgan turar joy va ekologik toza oziq-ovqat mahsulotlari bo'lib, turizmning bu turida turistlar agroturistik mahsulotlardan bahramand bo'lib, o'sha joyning o'zida turistlar yangi oziq-ovqat va poliz mahsulotlarini sotib olib, uni o'zlari tayyorlashi mumkin.

Umuman olganda, agroturizm ekologik toza tovarlar taqdim etish va xizmatlar ko'rsatishga asoslangan turizm turi bo'lib, mamlakat budjetiga salmoqli daromad qo'shadi. U orqali investorlarni agroturistik massivlarni barpo etishga jalb etish mumkin. Agroparklarning, agroklastarlarning qurilishi natijasida qishloq hududlarini barqaror rivojlantirish choralari ko'riladi; qishloq aholisini ish bilan ta'minlaydi, qishloq aholisining xorijga migratsiyasini kamaytiradi, turistik mavsum davomiyligini uzaytiradi, qiymati bo'yicha raqobatbardosh dam olish turi hisoblanadi.

## XULOSA

Xulosa qilib aytganda, yurtimiz tabiati agroturizmni rivojlantirish uchun yetarlicha salohiyatga ega mintaqa hisoblanadi. Agroturizmga bo'lgan qiziqish ushbu sohani rivojlantirishda xorij tajribasini o'rganishni va uni amaliyotda qo'llashni talab qiladi. Insonlarning sayohatga bo'lgan qiziqishlarini oshirishda undagi bo'sh vaqt asosiy o'rinni egallagani singari kelajakda 5 kunlik ish haftasiga o'tuvchi korxona va tashkilotlarning ko'payishi aholining ommaviy ravishda sayohatga chiqishlariga zamin yaratadi.

Qishloq xo'jaligini diversifikatsiya qilishda agroturizmni tashkil qilish fermer va dehqon xo'jaligi tashkil qiluvchilari uchun muhim hisoblanadi. Agroturizmning kishilar hayotini yaxshilash va farovonligini oshirishda muhim turizm yo'nalishlaridan biridir.

Hozirgi global rivojlanish davrida qishloqlarni rivojlantirish muammosi mamlakatlarning shahar va qishloq geografiyalari o'rtasidagi o'zgarishlar iqtisodiyotning nomutanosibligini oshirishdagi eng muhim muammolaridan biri bo'lib, agroturizm mahalliy dinamikaga bog'liq bo'lgan tuzilishi bilan jozibador o'rin egallaydi. Qishloq xo'jaligi sektori mintaqaning o'z manbalari orqali rivojlanish imkoniyatlarini taqdim etadi va shahar va qishloq aholisi o'rtasida yangi kommunikativ hududni tashkil etadi.

Agroturizmni hududiy rivojlantirish borasida quyidagi istiqbolli takliflarni berib o'tamiz:

- Agroturizmning O'zbekistonda rivojlanishi uchun huquqiy va institutsional bazani shakllantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Agroturizm faoliyatini tartibga soluvchi maxsus qonun va normativ-huquqiy hujjatlar ishlab chiqilishi, fermer xo'jaliklari uchun agroturizm sohasida imtiyozli kreditlar va grantlarni joriy qilish zarur. Infratuzilmani rivojlantirish maqsadida agroturizm obyektlariga olib boruvchi yo'llarni yaxshilash, ekologik transport xizmatlarini yo'lga qo'yish, fermer va dehqon xo'jaliklari uchun turistik mehmonxonalar, ekouylar va agroklastarlarni tashkil qilish talab etiladi;

- Mahalliy aholining agroturizm rivojlanishida ishtirokini ta'minlash va ularni maxsus o'quv dasturlari orqali tayyorlash muhim ahamiyatga ega. Qishloq aholisi orasida agroturizmning afzalliklari to'g'risida keng targ'ibot olib borish lozim. Shu bilan birga, marketing strategiyasini ishlab chiqish, O'zbekistonda mavjud agroturizm obyektlarini xalqaro va milliy turizm platformalarida targ'ib qilish, "Tabiatga sayohat" elektron platformasi orqali agroturistik marshrutlarni xaritalashtirish va sayyohlarga interaktiv ma'lumot berish zarur;

- Xalqaro hamkorlikni kengaytirish orqali xorijiy davlatlar bilan tajriba almashish va ilg'or agroturizm modellarini O'zbekistonda tatbiq etish mumkin. Shu bilan birga, agroturizm loyihalarini xalqaro grantlar va investitsiyalar orqali qo'llab-quvvatlash choralari ko'rilishi lozim. Ekologik barqarorlik va diversifikatsiyani ta'minlash uchun qishloq joylarida ekoturizm bilan integratsiyalashgan agroturizm loyihalarini amalga oshirish, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va chiqindisiz ishlab chiqarish konsepsiyasini joriy etish talab etiladi.

Ushbu takliflarning amalga oshirilishi O'zbekistonda agroturizm rivojlanishini jadallashtiradi, qishloq hududlarining iqtisodiy salohiyatini oshiradi hamda ekologik va madaniy merosni asrab-avaylashga xizmat qiladi.

## **FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI**

1. <https://kun.uz/news/2020/07/15/8-soatlik-ish-8-soatlik-uyqu-va-8-soatlik-erkinlik-dunyo-ishchilari-erishgan-galaba>
2. E. B. Tog'aymurodov. Agroturizm: Qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish muqobil mexanizmi. Toshkent davlat agrar universiteti Samarqand filiali xalqaro ilmiy Anjuman to'plami, Toshkent – 2024, 145-bet.
3. <https://cyberleninka.ru/article/n/sistemnyy-sintez-kategorii-agroturizma.pdf>
4. Kaluina M. Travel and Tourism in Eastern Europe // Euromonitor International, 2013. — 24 p.
5. А.Б. Здорова. Агротуризм: перспективи розвитку в Україні // Міжнар. наук. -практ. конф. "Наука, інновації та розвиток регіонів".

6. <https://lex.uz/docs/-4143188>
7. Olimovich, D. I., Temirkulovich, U. J., & Bakhodirovna, M. M. (2020). Mechanisms of improving staff training. *Academy*, (2 (53)), 20-21.
8. Тажибаев, М. Б., Душанова, Ю. Ф., & Умиров, Ж. Т. (2020). The role of national tourism resources in the development of domestic tourism. *Economics*, (4), 41-43.
9. Файзиева, С. К., & Умиров, Ж. Т. (2021). Объекты культурного наследия для развития сельского туризма в Узбекистане. *Вопросы науки и образования*, (1 (126)), 7-14.
10. Temirkulovich, U. J. (2021). Importance of entrepreneurship development in tourism industry (Bukhara region). *Academicia: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(4), 700-704.
11. Wang H. et al. The motivation mechanism and evolutionary logic of tourism promoting rural revitalisation: empirical evidence from China // *Sustainability*. – 2023. – Т. 15. – №. 3. – С. 2336.
12. Xayrullayeva, N., Kadirova, S., & Aripova, M. (2021). The Role of Education and Sustainable Tourism in Achieving Cost Effectiveness during a Pandemic. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8(8).
13. Хайруллаева, Н. Н. (2017). Conditions and features of development of sustainable nature-based tourism. *Современное экологическое состояние природной среды и научно-практические аспекты рационального природопользования* (pp. 174-177).
14. Nematilloevna, K. N., Salimovna, N. G., & Muxammedovna, T. M. (2021). Potential, Mechanisms and Scenarios of Sustainable Tourism Development in Regions of Uzbekistan. *Central asian journal of innovations on tourism management and finance*, 2(12), 32-39.
15. Xayrullayeva, N. (2021). The essence and main directions of innovative development of the uzbekistan economy. *Центр научных публикаций (buxdu. uz)*, 8 (8).